

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

ERMATOV SHERZOD SAIDOVICH

**ISHONCHLI VA INFORMATIV TESTLARDAN FOYDALANISH ORQALI
IQTIDORLI BOLALARNI FUTBOLGA TANLASH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.04 – Jismoniy tarbiya va sport mashg‘uloti nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Chirchiq - 2023

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical science**

Ermatov sherzod saidovich

Ishonchli va informativ testlardan foydalanish orqali iqtidorli
bolalarni futbolga tanlash metodikasini takomillashtirish.....3

Эрматов шерзод саидович

Совершенствование методики отбора одаренных детей в футболе на
основе использования надежных и информативных тестов.....31

Ermatov sherzod saidovich

Improving the methodology of selecting talented children for football
by using reliable and informative tests.....61

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works65

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

ERMATOV SHERZOD SAIDOVICH

**ISHONCHLI VA INFORMATIV TESTLARDAN FOYDALANISH
ORQALI IQTIDORLI BOLALARNI FUTBOLGA TANLASH
METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.04 – Jismoniy tarbiya va sport mashg‘uloti nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Chirchiq – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.3.PhD/Ped2780 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasining www.jtsu.uz va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Kipchakov Baxodir Baxriddinovich
pedagogika fanlari nomzodi, professor

Rasmiy opponentlar:

Koshbaxtiyev Ildar Axmedovich
pedagogika fanlari doktori, professor

Talipdjanov Asqar Imamdjanovich
pedagogika fanlari nomzodi, professor

Yetakchi tashkilot:

Namangan davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi DSc.30.03.12.2019.ped.28.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil "19" may soat 12⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko'chasi, 19-uy. Tel.: (0-370)-717-17 79,717-27-27, faks: (0-370) 717-17-76, Web-sayt: www.jtsu.uz, e-mail: info@jtsu.uz. O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti "B" binosi, 2-qavat, kichik anjumanlar zali).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (copy raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko'chasi, 19-uy.)

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil "18" may kuni tarqatildi.

(2023 yil "18" may dagi 19 raqamli reyestr bayonnomasi)



M.R.Boltabayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

M.X.Mirjamolov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, p.f. d.(DSc), dotsent

F.A.Kerimov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, p.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Dunyo miqiyosida iste'dodli yoshlarni saralash, sportga yo'naltirish jarayoni bugungi kunda ustuvor yo'nalishlardan biriga aylanmoqda. Sport sohasidagi yetakchi olim va mutaxassislar iste'dodli yosh futbolchilarning jismoniy rivojlanishi, jismoniy tayyorgarligi va harakat qobiliyati samaradorligining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda mashg'ulot o'tkazish lozimligini ta'kidlaydi. Sportga layoqatli bolalarni sport maktablariga saralashning asoslangan uslublari, ularning kelajakdagi yutuqlarini hamda sportdagi istiqbolini bashorat qilish ko'p yillik tayyorgarlik tizimining ajralmas qismiga aylanmoqda. Oqilona saralash hamda sportga yo'naltirish tizimi, qobiliyatlar va tabiatan iqtidorlarni izlab topish rivojlangan davlatlar futbolining asosiy ko'rsatkichlaridan biriga aylanib bormoqda.

Jahonda yetuk mutaxassislar tomonidan futbol sport turida malaka mezonlari va yo'nalishlariga qaratilgan sportchilarni saralash, ampuasi bo'yicha yo'naltirishga oid ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Futbol sport turida aksariyat tadqiqotchilar tomonidan sportchining genetikasi va jismoniy ish qobiliyati hamda, o'yin pozitsiyasidan kelib chiqib, o'yinchining mavjud holati o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik ko'rsatkichlarini aniqlashga doir ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shug'ullanuvchilarni sportga saralash mazmunining yetarli darajada ishlab chiqilishiga qaramay, futbol sport turida boshlang'ich tayyorgarlik bosqichiga qabul qilishda bolalarni sportga saralash va yo'naltirish masalalari yuzasidan ko'plab hal etilmagan muammolar mavjud bo'lib qolmoqda. Yosh sportchilarning jismoniy rivojlanishi, jismoniy tayyorgarligi va harakat qobiliyatlarini obyektiv baholashga qaratilgan yangi test me'yorlarini ishlab chiqish, pedagogik, tibbiy-biologik va sosiologik uslublardan foydalangan holda kompleks tadqiqotlar asosida iqtidorli yosh futbolchilarni boshlang'ich tayyorgarlik bosqichiga saralash metodikasini takomillashtirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Respublikamizda so'ngi yillarda o'sib kelayotgan yosh avlodni sportga jalb qilish va yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olishga qaratilgan ko'plab chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. "Joylarda yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni tanlab olish (seleksiya)ning samarali va shaffof to'rt bosqichli: tashkilot-tuman (shahar)-hudud-respublika tizimini ishlab chiqish va joriy etish" hamda "iqtidorli sportchilarni aniqlash va yoshlar terma jamoalariga zaxira yaratish"¹ masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Futbolga iqtidorli bolalarni saralash bo'yicha keng qamrovli, ilmiy-uslubiy ishlar to'laligicha o'rganilmaganligi, bundan tashqari futbolga bolalarni saralab olish jarayonida jismoniy rivojlanish, jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarini baholash, ushbu ko'rsatkichlar yuzasidan doimiy monitoring ko'rsatkichlarining qayta tahlil etilmasligi futbolga xos qobiliyatlarni aniqlovchi ishonchli, informativ testlarni aniqlash va amaliyotga joriy qilish talabini qo'yimoqda. Shuningdek, yosh iqtidorli futbolchilarning individual imkoniyatlarini saralash bosqichida asosiy vosita sifatida ularni bosqichma-bosqich jismoniy rivojlanish va jismoniy tayyorgarligi ko'rsatkichlari qanday darajada ekanligini aniqlash, iqtidorli bolalarni futbol bilan shug'ullanish uchun

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5924-sonli Farmonining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni 2025 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi". B. 9-10.

samarali saralash tizimini tashkil etishning asosiy bosqichlari bo'yicha ilmiy va amaliy tajribalarga asoslangan tadqiqot ishlarini amalga oshirish davr talabi bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 martdagi PF-5368-son "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2019 yil 4 dekabrda PF-5887-son "O'zbekistonda futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020 yil 24 yanvardagi PF-5924-son "O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, 2018 yil 16 martdagi PQ-3610-son "Futbolni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy xujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika va fan texnologiyalarini rivojlantirishning I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovasion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" bilan bog'liq ustuvor yo'nalishi doirasida amalga oshirilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda futbol sport turi tobora rivojlanib bormoqda. O'z navbatida, iqtidorli bolalarni saralab olish, ularni sportga yo'naltirish va ko'p yillik tayyorgarlikda ularni muntazam saralab borish texnologiyalarini ishlab chiqish sport nazariyasi va uslubiyati sohasidagi muhim muammolardan hisoblanadi. Shu munosabat bilan boshlang'ich bosqichlarda birlamchi saralash masalalariga doir ilmiy izlanishlar bir qator mutaxassislar Sh.T.Iseev, R.A.Akramov, R.I.Nurimov, G.Sergeyev, A.Talipdjanov, I.A.Koshbaxtiyev, F.A.Kerimov, T.S.Usmonxodjayev, M.A.Qurbonova, A.U.Xamidjonov, Z.Z.Yusupov tomonidan olib borilgan².

Hozirgi kunda bir qator mualliflarning [V.P.Filin, M.Ya.Nabatnikova, N.J.Bulgakova, L.P.Matveyev, K.P.Saxnovskiy, V.N.Platonov, L.V.Volkov]³ fikricha, saralash sifati ko'p jihatdan sport zaxirasini ko'p yillik tayyorlash samaradorligini belgilaydi.

Xorijiy yetakchi olimlarning sport o'yinlarida [Yu.D.Jeleznyak, M.S.Brill,

² Годик М.А., Исеев Ш.Т., Акрамов Р.А., Нуримов Р.И., Сергеев Г., Талипджанов А. Нормирование нагрузок межигровых циклов при проведении занятий в условиях высокой внешней температуры. Т., 1988.-52 с.; Кошбахтиев И.А. Управление подготовкой футболистов. Ташкент. 2001. - 124 с. Керимов Ф.А. Спорт кураши назарияси ва усулияти: Дарслик. - Т.: ЎзДЖТИ, 2005. - 342 б.; Усмонхўжаев Т.С. Болалар ва ўсмирлар спорти. - Тошкент. Фан, 2006. - 103 б.; Курбонова М.А. Бошланғич тайёргарлик даврида ёш волейболчиларни танлаш ва машғулот жараёнида хатти ҳаракатли ўйинларидан фойдаланиш. Автореферат дис.п.ф.н. 2006.Б.12. Хамиджонова А.У. Белбоғли кураш спорт турига болаларни саралаш тизими ва мазмунини такомиллаштириш. Автореферат дис. п.ф.б.ф.д (PhD) 2021. Б.13. Юсупов З.З. Бошланғич тайёргарлик босқичига ёш гандболчиларни саралаш технологияси. Автореферат дис.п.ф.б.ф.д (PhD) 2021. Б. 11.

³ Филин В.П. Основы юношеского спорта / В.П.Филин, Н.А.Фомин. - М.: Физкультура и спорт, 1980. - С. 185-207; Набатникова М.Я. Взаимосвязь уровня разносторонней физической подготовленности и спортивных результатов у юных спортсменов // Теория и практика физической культуры. - 1984. - № 10. - С. 27-28; Булгакова Н. Ж. Отбор и подготовка юных пловцов / Н.Ж.Булгакова. - М.: Физкультура и спорт, 1986. 190 с; Матвеев Л.П. Воспитание двигательных-координационных способностей / Л.П. Матвеев // Теория и методика физической культуры. - М.: ФиС, 1991. - С. 158-180; Сахновский К.П. / Теоретико-методические основы системы многолетней спортивной подготовки: дис.д.п.н. – Киев, 1997. – 318 с; Платонов В.Н. Общая теория спортсменов в олимпийском спорте. - Киев.: Олимпийская литература, 1997. - 436 с; Волков Л.В. Теория и методика детского и юношеского спорта: учеб. - Киев: Олимп. лит. 2002. - 395 с.

V.P.Guba, R.N.Doroxov, V.A.Bikov, A.A.Solonkin]⁴, xususan, futbolda [K.A.Shperling, A.P.Laptev, A.A.Suchilin, N.V.Fedotova, A.Chudin, A.V.Markov, D.van Gaal va L.P.Sergiyenko]⁵ ta'kidlashicha, eng iqtidorli bolalarni saralash uchun turli xil mezonlardan foydalaniladi, ammo ko'p hollarda bu mezonlar bir tomonlama yoki subyektivdir. Ko'pincha saralash o'z-o'zidan amalga oshiriladi yoki eng yaxshi holatda murabbiylar bolalar tomonidan nazorat o'yinlarida namoyish etilgan texnik va taktik ko'nikmalarning shakllangan darajasiga amal qilishadi. Bolalarning potensial imkoniyatlari saralashda umuman e'tiborga olinmasligi e'tirof etiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish joizki, 7-8 yoshli bolalarni futbol bilan muntazam shug'ullanish uchun o'quv-mashg'ulot guruhlariga saralashda ularning jismoniy imkoniyatlarini to'g'ri baholash, buning uchun saralash metodikasini takomillashtirish, nazorat me'yorlari mezonlarini aniqlash hamda futbol sport turi uchun xos ishonchli va informativ testlarni aniqlab olish va iqtidorli bolalarni saralash va futbolga ixtisoslashuv mezonlarini aniqlash texnologiyasini ishlab chiqish o'ta dolzarb va muhim hisoblanadi. Aynan shu tadqiqotlarimizning dolzarbligini belgilab beradi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Samarqand davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq № V.III/57. "Jismoniy tarbiya va sport sohasida boshqarishning me'yoriy-huquqiy tadqiqotlarini rivojlantirish, jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlar tayyorlashni takomillashtirish" mavzusi doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi 7-8 yoshli futbolchilarni ishonchli va informativ testlardan foydalanish orqali saralash samardorligini oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

yosh futbolchilarni saralashda jismoniy sifatlarni aniqlash uchun to'p bilan bajariladigan elementlarda reaksiya vaqti va vaziyatga muvofiq texnik harakatlarga tanlab reaksiya qilish vaqtini tavsiflash;

yosh futbolchilarning koordinasiya tarkibiga kiruvchi harakatlarni ritmik bajarishga imkon beruvchi omillarni aniqlash testlarini ishlab chiqish;

⁴ Железняк Н.Д. Совершенствование системы подготовки спортивных резервов в игровых видах спорта. Автореферат дис. д.п.н. 1980. - 48 с; Бриль М. С. Отбор в спортивных играх / М. С. Бриль. - М.: Физкультура и спорт, 1980. - 127 с; Бриль М. С. Принципы и методические основы активного отбора школьников для спортивного совершенствования: автореф. дис. ... д-ра пед. наук: 13.00.04 - М., 1986. 24 с; Губа В.П. Прогнозирование двигательных способностей и основы ранней ориентации в спорте: учебное пособие / В.П. Губа, Р.Н. Дорохов, В.А. Быков, А.А. Солонкин. - М.: Олимпия Пресс, 2007. - 158 с.

⁵ Юный футболист: учебное пособие для тренеров / под общ. ред. А.П. Лаптева и А.А. Сучилина. - М.: Физкультура и спорт, 1983. 255 с; Шперлинг К.А. Экспериментальное обоснование методики отбора детей и комплектования учебных групп для занятий футболом: Автореф. дис. канд. пед. наук. М., 1987. - 22 с; Van Gool, D. The physiological load imposed on soccer players during real math-play / D. Van Gool, D. Van Gerven, J. Boutmans // Proceedings of the First World Congress of Science and Football, Liverpool 13-17 April 1997. - London, 1998. - P. 51-59; Федотова Н.В. Основы управления многолетней подготовкой юных спортсменов в командных игровых видах спорта / Н.В. Федотова. - М.: Спутник+, 2001. - 245 с; Чудин А. Технология поэтапного отбора юных спортсменов 10 и 14 лет, занимающихся мини-футболом / А. Чудин // Физическая культура: воспитание, образование, тренировка: Детский тренер: Журнал в журнале. - 2006. - № 6. - С. 29; Морков А.В. Формы организации и проведения соревнований по мини-футболу среди детей и подростков по месту жительства / А.В.Морков // Актуальные вопросы развития детского и юношеского футбола: II регион, науч.-практ. конф. тренеров, преподавателей, инструкторов по футболу, руководителей физкультурно-спортивных учреждений. - Омск: Сиб.ГАФК, 2007. - С. 206-211. Сергиенко Л.П. Спортивный отбор: теория и практика : монография [Текст]: / Л.П.Сергиенко. - М. : Советский спорт, 2013. С.729-781.

yosh futbolchilarni saralab olish jarayonida sportchilarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligi, jismoniy sifatlarni rivojlantirishning sensitiv davrlari bo'yicha tananing harakat tezligi hamda gavdaning statik va dinamik muvozanatini yaxshilash uchun mashqlar ishlab chiqish;

futbol sport turida boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida iqtidorli yosh futbolchilarning jismoniy va funksional tayyorgarligini tashxislashga qaratilgan to'rt bosqichli saralash texnologiyasini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida futbolda yosh sportchilarni mashg'ulotlarga saralash jarayoni olingan.

Tadqiqotning predmetini yosh futbolchilarni saralashda ishonchli va informativ testlardan foydalanish tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda ilmiy-metodik adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish, so'rovnoma, pedagogik kuzatish, pedagogik nazorat testlari, antropometriya va pulsometriya, pedagogik tajriba va olingan ma'lumotlarni matematik-statistik qayta ishlash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

yosh futbolchilarni saralash uchun to'p bilan bajariladigan elementlarda vaziyatga muvofiq texnik harakatlarni tanlab reaksiya qilish vaqtini qisqartirishga qaratilgan maxsus jismoniy sifatlarni rivojlantirish modelini harakat tezkorligi reaktivligini takomillashtirish hisobiga tanlash imkoniyatlari kengaytirilgan;

yosh futbolchiga harakatlarni ritmik bajarishga imkon beruvchi tezlikni almashtirish va driblingga asoslangan "oyoq bilan bouling" mashg'ulotini kiritish hisobiga maxsus testlar bilan tanlash imkoniyati takomillashtirilgan;

yosh futbolchilarni saralab olish jarayonida sportchilarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligini, jismoniy sifatlarni rivojlantirishning sensitiv davrlari bo'yicha, tananing harakat tezligi hamda gavdaning statik va dinamik muvozanatini yaxshilashga qaratilgan vestibulyar muvozanat, osilgan to'pga bosh bilan zarba berish kabi mashqlarni kiritish hisobiga saralash imkoniyati kengaytirilgan;

futbol sport turida boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida iqtidorli yosh futbolchilarning jismoniy va funksional tayyorgarligi bo'yicha tashxislashga qaratilgan to'rt bosqichli saralash texnologiyasini ishlab chiqish evaziga 7-8 yoshli futbolchilarni dastlabki tanlash imkoniyatlari takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

7-8 yoshli futbolchilarning jismoniy rivojlanish, jismoniy tayyorgarlik va texnik harakat qobiliyatlari ko'rsatkichlarini rivojlantirish modeli ishlab chiqilgan;

yosh futbolchilarning jismoniy tayyorgarligi va texnik harakat qobiliyatlarini har tomonlama baholash, birlamchi va kelgusi natijalarni bashorat qilish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

yosh futbolchilarni saralashda sportchilarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligini oshirish, jismoniy sifatlarni rivojlantirishda tananing harakat tezligi hamda gavdaning statik va dinamik muvozanatini yaxshilashga qaratilgan mashqlar ishlab chiqilgan;

takomillashtirilgan texnologiya futbol bo'yicha sport maktablar uchun mo'ljallangan o'quv-mashg'ulot jarayonini tartibga soluvchi amaldagi dastur va me'yoriy hujjatlarga kiritilishga asos bo'ladi, futbol mutaxassislari va murabbiylarga informativ

testlardan foydalanish orqali bolalarni tanlab olishni ilmiy-uslubiy tashkil qilishda amaliy yordam beradi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ilmiy nazariyalar, sport amaliyotda mavjud qoidalarning nazariy jihatdan asoslanganligi, tadqiqotning ilmiy tashkil etilganligi bilan tasdiqlanadi, qo'llanilgan tadqiqot uslublari kompleksi tadqiqot oldiga qo'yilgan vazifalarga mosligi, katta daliliy materiallarning yuqori darajadagi ishonchliligi, to'g'ri ishlab chiqilganligi, tahlil qilinganligi va talqin etilganligi bilan izohlanadi, olingan natijalarning to'g'riligi va ishonchliligi aniq hamda qo'shimcha o'zaro to'ldiruvchi, ya'ni tibbiy-biologik tadqiqot uslublarning qo'llanilganligi bilan ta'minlangan, tadqiqot natijalari matematik statistik uslublari yordamida ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, o'tkazilgan pedagogik tajribalarda olingan natijalar asosida ishlab chiqilgan ishonchli va informativ testlardan foydalanish orqali futbolga saralashda ixtisoslashuv mezonlarini aniqlash texnologiyasi samaradorligi ilmiy-nazariy mohiyati ochib berilgan.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, futbol sport turi bo'yicha sport maktablarining boshlang'ich tayyorgarlik bosqichiga ishonchli va informativ testlardan foydalanish orqali futbolga saralashda ixtisoslashuv mezonlarini aniqlash texnologiyasi futbol nazariyasi va uslubiyatini to'ldiradi, bolalarni sportga saralashning tajribada asoslangan texnologiyasi sport ta'lim muassasalarining o'quv-mashg'ulot guruhlariga qabul qilishda samarali qo'llanilishi tajribada sinalganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Iшонchli va informativ testlardan foydalanish orqali iqtidorli bolalarni futbolga tanlash metodikasini takomillashtirishda ma'lumotlarni hisobga olish va tahlil qilishning yagona tizimi asosida:

yosh futbolchilarni saralash uchun to'p bilan bajariladigan elementlarda vaziyatga muvofiq texnik harakatlarga tanlab reaksiya qilish vaqtini qisqartirishga qaratilgan maxsus jismoniy sifatlarni rivojlantirish modeli ishlab chiqilib, Samarqand viloyati bolalar-o'smirlar futbol akademiyasi (maxorat maktabi) o'quv-mashg'ulot yig'inlarini tashkil qilishda qo'llanilgan (O'zbekiston Respublikasi Sportni rivojlantirish vazirligining 2022 yil 16 dekabrda 06-01/06/12/9253-son ma'lumotnomasi). Natijada, iqtidorli bolalarni futbolga saralash imkoniyatlari 8.5 % ga oshgan;

yosh futbolchiga harakatlarni ritmik bajarishga imkon beruvchi tezlikni almashtirish va driblingga asoslangan "Oyoq bilan bouling" mashqi Samarqand viloyati "Dinamo-Plyus" PFK bolalar-o'smirlar maxsus futbol sport maktabi futbolchilarining mashg'ulot jarayonida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Sportni rivojlantirish vazirligining 2022 yil 16 dekabrda 06-01/06/12/9253-son ma'lumotnomasi). Natijada, sport mashg'ulotlari va musobaqa faoliyatiga iqtidorli bolalarni maxsus testlar yordamida saralash imkoniyati darajasi ishonchli 13,2 % ga ortgan;

yosh futbolchilarni saralab olish jarayonida sportchilarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligi, jismoniy sifatlarni rivojlantirishning sensitiv davrlarini inobatga olib, tananing harakat tezligi hamda gavdaning statik va dinamik muvozanatini yaxshilashga qaratilgan (vestibulyar muvozzant, osilgan to'pga bosh bilan zarba berish kabi) mashqlar Samarqand shahar 2-son sport maktabi o'quv-mashg'ulotlari jarayonida qo'llanilgan (O'zbekiston Respublikasi Sportni rivojlantirish vazirligining 2022 yil 16 dekabrda 06-01/06/12/9253-son ma'lumotnomasi). Natijada, jismoniy tayyorgarlik, antropometrik ko'rsatkichlarning o'sish dinamikasi optimallashtirilgan, umumiy

jismoniy tayyorgarlik bo'yicha saralash imkoniyati ishonchli 12,3%; maxsus jismoniy tayyorgarlik bo'yicha 13,3%, iqtidorli bolalarning funksional tayyorgarlik ko'rsatkichlari ishonchli 14,1% ga o'sgan;

futbol sport turida boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida iqtidorli yosh futbolchilarning jismoniy va funksional tayyorgarligi bo'yicha tashxislashga qaratilgan to'rt bosqichli saralash texnologiyasi ishlab chiqilgan va bakalavriat ta'lim yo'nalishlari uchun nashr qilingan "Sport va harakatli o'yinlarni o'qitish metodikasi (futbol)" o'quv qo'llanmasi mazmuniga singdirilgan (Samarqand davlat universiteti ilmiy kengashining 2022 yil 28 noyabrdagi 3-sonli qaroriga asosan 88-sonli guvohnomasi). Natijada, futbol bilan muntazam shug'ullanadigan 7-8 yoshli futbolchilarni musobaqa faoliyati sharoitida dastlabki saralash samaradorligi ko'rsatkichlari 12,5 % ga oshgan.

Tadqiqot natijalarining aprobeasiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida hamda Samarqand davlat universiteti sport faoliyati kafedrasining kengaytirilgan majlisida aprobeasiyadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 3 ta maqola, shu jumladan, xorijiy ilmiy jurnalda 1 ta maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, to'rtta bob, xulosalar va amaliy tavsiyalar, ilovalar va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, matni 146 sahifani tashkil etadi, 13 ta jadval va 7 ta rasmda qayd etilgan diagrammalardan foydalanilgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi va muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, shuningdek, obykti va predmeti aniqlangan, ishning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlarga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi borasidagi ma'lumotlar kiritilgan.

Dissertatsiyaning "**Yosh futbolchilarni sportga saralashning mazmuni va tashkil etilishi**" deb nomlangan birinchi bobida yosh futbolchilarni saralash muammolari, umumiy saralash bosqichlari, futbolga saralashning tashkiliy-uslubiy jihatlari, dastlabki saralab olish va seleksiya muammolari yoritilgan. Mahalliy va xorijiy adabiyotlarni tahlil qilish asosida ko'plab mutaxassislar bolalarni futbol bilan shug'ullanishga saralashda ularning jismoniy rivojlanishi va jismoniy tayyorgarligini aniqlash va nazorat qilishning yangi shakllari va usullarini izlashga e'tibor qaratishi aniqlandi. Bolalarni futbol bilan shug'ullanish uchun saralashda pedagogik nazoratni tashkil etish va o'tkazish saralash jarayonida bolalarning qobiliyatlarini aniqlashga, shuningdek, jismoniy va maxsus tayyorgarlikning yuqori darajasiga erishishga qaratilgan bo'lishi kerak. Asosiy vazifa yosh futbolchilarning umumiy va maxsus tayyorgarligi ko'rsatkichlari qay darajada mos kelishini aniqlashdir. Bunda bolalarni futbol bilan shug'ullanishi, ularni saralash uchun tanlangan testlar to'plamining informativligi va

ishonchliligi sinovdan o'tkazilishi kerak. Bolalar va o'smirlarning jismoniy tayyorgarligi darajasi ularning asosiy jismoniy sifatlarini testdan o'tkazish nazorat sinovlari va pedagogik kuzatishlar orqali aniqlanadi. Katta ehtimollik darajasi bilan bolalar va o'smirlarning salohiyatini aniqlash uchun nafaqat ularning boshlang'ich tayyorgarligi darajasini, balki ularning o'sish sur'atlarini ham aniqlash maqsadga muvofiqdir. Harakat vazifalarini hal qilish qobiliyatini aniqlash, harakat ijodkorligini namoyish etish va uni boshqarish qobiliyati ochib berilishi lozim. Aksariyat hollarda bir martalik nazorat sinovlari taqdim etilgan testlar to'plamini bajarishga tayyor turish istiqbolli imkoniyatlar haqida ma'lumot beradi. Sportchining potensial natijasi esa jismoniy sifatning dastlabki rivojlanish darajasidan ko'ra ko'proq maxsus tayyorgarlik jarayonida bu sifatning o'sish sur'atiga bog'liq bo'ladi.

Aksariyat mutaxassislarining fikriga ko'ra, saralash - bu murakkab xususiyatga ega tashkiliy va uslubiy choralar majmui bo'lib, pedagogik, sosiologik, psixologik va tibbiy-biologik tadqiqot usullarini o'z ichiga oladi, shu asosda bolalarning ma'lum bir sport turiga ixtisoslashishga moyilligi va qobiliyatlari aniqlanadi. Shu bilan birga, saralash o'quv-mashg'ulot jarayonining hayotiy muhim qismi bo'lib, sport tayyorgarligining asosiy vazifasi - yuqori sport natijalariga erishishga yordam beradi.

Ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish va o'rganish shuni ko'rsatadiki, futbol bilan shug'ullanish uchun bolalarni saralash testlari tizimi yaratilmagan va mavjudlari standartlashtirish mezonlari talablariga muvofiqligi uchun maxsus tekshiruvdan o'tmagan. Shu sababli bolalarni futbol bilan shug'ullanish uchun saralashning aniq tizimi yaratilmagan.

Yuqoridagi ma'lumotlarga asoslanib, ushbu muammoni o'rganish dolzarb hisoblanadi.

Dissertatsiya ishining ikkinchi bobi "**Tadqiqotning uslublari va tashkil qilinishi**" deb nomlangan, dissertatsiya ishini bajarish va tashkil etishda qo'llaniladigan ilmiy-tadqiqot usullari yoritilgan. Shuningdek, bobda yosh futbolchilarning jismoniy rivojlanishi va jismoniy tayyorgarligini baholash uchun testlar keltirilgan. Tadqiqot davomida o'tkazilgan pedagogik tajribada nazorat (NG) va tajriba guruhlarini (TG) tashkil etish va tajriba o'tkazish muddatlari batafsil tavsiflangan. Tadqiqotning metodologiyasi va shartlari to'rt bosqichga bo'lingan:

I bosqich (2015-2016) - mavzu bo'yicha ilgari nashr etilgan ishlarni to'liq nazariy tahlil qilish, hal qilinmagan muammolarni aniqlash, ushbu tadqiqot mavzusini tanlash, tadqiqotning maqsad va vazifalarini belgilash, ushbu muammoni hal qilish bo'yicha real amaliyotni o'rganish, jismoniy tarbiya nazariyasi va amaliyotida mavjud bo'lgan ushbu muammoni hal qilishga yordam beruvchi chora-tadbirlarni o'rganish, tadqiqot farazini shakllantirish.

II bosqich (2017-2018) - bir qator vazifalardan iborat: tajriba obyektlarining zarur sonini tanlash (yosh futbolchilar soni), tajribani o'tkazishda talab qilinadigan davomiyligni aniqlash, tajriba obyektining dastlabki holatini o'rganish uchun aniq metodikani tanlash, metodikalarning qulayligi va samaradorligini sinalinuvchilarning kichik sonida tekshirish, tegishli pedagogik ta'sirlar ostida tajriba obyektidagi o'zgarishlarni baholash mumkin bo'lgan ko'rsatkichlarni aniqlash.

III bosqich (2019-2020) - asosan ishlab chiqilgan metodikaning samaradorligini sinash uchun tajriba o'tkazishga qaratilgan. Ushbu bosqich quyidagi tadbirlarni o'z ichiga oladi: tajriba o'tkaziladigan tizimning dastlabki holatini o'rganish (yosh

futbolchilarning jismoniy va tezkor-kuch tayyorgarligi darajasi aniqlanadi), tajriba o'tkaziladigan sharoitlarning dastlabki holatini o'rganish, taklif etilayotgan chora-tadbirlar tizimining samaradorlik mezonlarini shakllantirish, tajriba ishtirokchilariga uni samarali o'tkazish tartibi va shartlari to'g'risida yo'riqnomani tushuntirish, muayyan tajriba muammosini hal qilish uchun muallif tomonidan taklif qilingan chora-tadbirlar tizimini amalga oshirish, tajribaga oid tadbirlar tizimi ta'sirida obyektlardagi o'zgarishlarni tavsiflovchi oraliq ma'lumotlar kesimi asosida tajribaning borishi to'g'risidagi ma'lumotlarni qayd etish, tajribani o'tkazish davomidagi qiyinchiliklar va uchrashi mumkin bo'lgan kamchiliklarni ko'rsatish, joriy vaqt, vosita va sa'y-harakatlar sarfini baholash.

IV bosqich (2021-2022) - bu tajriba natijalarini umumlashtirishga qaratilgan yakuniy bosqich: tajribaga doir chora-tadbirlar tizimi natijalarining tavsifi (yosh futbolchilar tayyorgarlik darajasining yakuniy holati, bilim, ko'nikma va qobiliyatlarni o'zlashtirish darajasi), tajriba ijobiy natija bergan sharoitlar tavsifi, tajribada ta'sir subyektlarining (murabbiylar, sportchilar) o'ziga xos xususiyatlari tavsifi, sarflangan vaqt, kuch va vositalar to'g'risidagi ma'lumotlarni aniqlash, tajriba davomida tekshirilgan chora-tadbirlar tizimini qo'llash chegaralarini ko'rsatish.

Tayyorgarlik bosqichida tajriba va nazorat guruhlariga kiritilgan 7-8 yoshdagi futbolchilarning o'yin harakatlarini egallashga bo'lgan kelajakdagi istiqbolini baholash yuzasidan ishlab chiqilgan uslubiyatdan foydalangan holda pedagogik tajriba o'tkazildi.

Dissertatsiyaning "**Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida yosh futbolchilarni saralash texnologiyasi**" deb nomlangan uchinchi bobida mahorat maktabi va bolalar-o'smirlar sport maktabi murabbiylari bilan yosh futbolchilar jismoniy tayyorgarligining holatini o'rganish bo'yicha o'tkazilgan so'rovnomalarning natijalari va ularning tahlili ochib berilgan. So'rovnoma 36 nafar futbol murabbiylari orasida o'tkazildi. So'rovnomada oliy ma'lumotli, 3 yil va undan ortiq ish tajribasiga ega bo'lgan barcha murabbiylar ishtirok etishdi, ulardan 12 nafari futbol bo'yicha sport ustasi unvoniga ega murabbiylar. Murabbiylarning 58% yosh futbolchilarning jismoniy tayyorgarligini yiliga 2 marta (mashg'ulotlar yilining boshida va oxirida) sinovdan o'tkazish maqsadga muvofiq, deb hisoblaydi. Respondentlarning 18 foizi yosh futbolchilarning jismoniy tayyorgarligi darajasini yil davomida 3 marta nazoratdan o'tkazish zarur, deb hisoblaydi. Respondentlarning 13% esa yosh futbolchilarning jismoniy tayyorgarligini nazorat qilish bunga ehtiyoj mavjud bo'lganda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq va bu jihatdan hech qanday cheklovlar va chegaralar bo'lmasligi kerak, deb hisoblaydi. Respondentlarning 11% yosh futbolchilarni sinovdan o'tkazishga umuman zarurat yo'q, degan fikrni bildirgan. Biroq 75% ni tashkil etuvchi respondentlarning aksariyat qismi jismoniy sifatlarni baholash yosh futbolchilar o'quv-mashg'ulotlar jarayonining samaradorligini oshirishga yordam beradi, shuningdek, yosh futbolchilarni har bir yoshdagi jismoniy rivojlanish me'yorlariga yo'naltiradi, bu esa ko'p jihatdan bolalar salomatligining holati va o'zlarini qanday his qilishlariga bog'liq, deb hisoblaydi.

Deyarli barcha respondentlarning (96%) ta'kidlashicha, bolalarning futbol bilan shug'ullanishi uchun saralash dasturi o'rtacha bolaga mo'ljallangan bo'lib, bu, o'z navbatida, jismoniy tayyorgarlik jarayonini individuallashtirishga, mashg'ulotlarda tabaqalashtirilgan yondashuvdan foydalanishga imkon bermaydi. Shuning uchun jismoniy rivojlanish va jismoniy tayyorgarlikda orqada qolayotgan bolalar bu jihatdan ko'proq darajada rivojlangan tengdoshlariga yetib olish imkoniyatiga ega emaslar.

So'rov natijasida ko'plab murabbiylar sensitiv davrlarda jismoniy sifatlarning rivojlanishi va yosh futbolchilarni dastlabki saralash tizimi haqida yetarlicha ma'lumotga ega emasligi ma'lum bo'ldi. Yosh futbolchilarning murabbiylari ilmiy ma'lumotlarga qiziqmasligi, ushbu masala bo'yicha darslik, o'quv qo'llanma, monografiyalarni o'rganmasligi aniqlandi, buni olingan so'rov natijalari tasdiqlaydi. Pedagogik faoliyatini doimiy ravishda tahlil qilib borish, sport nazariyasi, pedagogika, psixologiya, fiziologiya sohasidagi nazariy ma'lumotlarni doimiy ravishda yangilab turish murabbiyning pedagogik ishi samaradorligining kafolati hisoblanadi. So'rov natijalariga ko'ra, respondentlarning 62% ni tashkil qiluvchi ko'plab murabbiylar bolalarni futbolga saralash dasturiga tuzatishlar kiritishni taklif qilmoqdalar.

O'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, murabbiylar o'rtasida hali ham futbolga iqtidorli bolalarni saralashni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha yagona fikr mavjud emasligi va shu sababli ushbu muammoni o'rganish dolzarbligi hamda yanada keng qamrovli izlanishni talab qilishi aniqlandi.

Hozirgi kunga kelib futbol o'yini yanada tezlashdi, bu birinchi o'rinda o'yin shiddati, sportchilarning tezkorlik bilan samarali qaror qabul qilishi, raqibning harakatini o'qib olishi, to'p uchun yoki maydonning har bir qismidan to'g'ri joy tanlashga kurashishida namoyon bo'lmoqda. Raqiblarning faol qarshiligi, maydondagi har bir harakatlarning yuqori tezlikda amalga oshirilishi, maydondagi joy (pozisiya)ning to'g'ri tanlanishi, to'p uchun kurash olib borishda texnik-taktik harakatlarning murakkabligi oqibatida yuzaga kelgan katta asab-psixik toliqish musobaqa faoliyati samaradorligini yanada murakkablashtiradi. Futbolchilarning sport-o'yin faoliyati samaradorligini oshirish bir qancha tayyorgarlik ko'rsatkichlarining rivojlanganlik darajasiga bog'liq. Futbolda boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida munosib saralash o'ta muhim, zero saralash uchun qo'llanilayotgan vosita va mezonlarning ishonchsizligi bois bu sport mahorati o'sishining to'xtab qolishiga olib kelmasligi lozim.

Yosh futbolchilarning iqtidorini tashxislashga muhim darajada ta'sir qiluvchi bir qator mezonlar katta ahamiyatga ega. Mezonlarga muayyan qobiliyatlarning sifat-son tavsiflari kiradi. Biroq maksimal to'liq axborotni to'plash texnik jihatdan qiyin. Shu sababli dolzarb ilmiy vazifa boshlang'ich saralash jarayonida kompleks baholashning yetarli minimumini aniqlashdan iborat. Shuning uchun boshlang'ich saralash jarayonida testlarni standartlashtirish nazariyasidan kelib chiqib, mashqlarni amaliy qo'llashdan oldin ularning qanchalik ishonchliligi, informativligi, natijalarning qayta takrorlanuvchanlik darajasi va obyektivligini aniqlash va kompleks nazorat qilish zarur.

Sportga saralash vaqtida sportchilarning qobiliyatlari ham bir xil yorqin ifodalangan bo'lmaydi. Bu, birinchi navbatda, ularning harakat rejimi, yetilish sur'atlari, ijtimoiy va boshqa omillarning bir-biridan farq qilishi bilan bog'liq. Sportga saralash masalasini hal etishda kompleks yondashuv tamoyili nafaqat keng ko'lamli ma'lumot olishga, balki maxsus qobiliyatlarni shakllantirish mumkinligi nuqtai nazaridan har xil hayot faoliyati sohalariga taalluqli bo'lgan ko'rsatkichlarni taqqoslashga imkon beradi. Shaxsning barcha sifatlari va xossalari bir-biri va o'yin faoliyati samaradorligi bilan murakkab munosabatda bo'ladi. Shuningdek, ular sport tayyorgarligi jarayonida o'zgarishlarga uchraydi. Munosabatlar va o'zgaruvchanlik qonuniyatlari saralashda qobiliyatlarni to'g'ri va o'z vaqtida baholashga yo'naltiradi.

Sportga saralash texnologiyasini ishlab chiqishda sport mashg'uloti vazifalarini bosqichma-bosqich va yosh futbolchilar boshlang'ich tayyorgarligining yakuniy

vazifalarini samarali hal etish maqsadida sportchilarning istiqbolini aniqlash vositalari va usullaridan samarali foydalanilgan holda shug'ullanuvchilar imkoniyatlarini baholash uslublari sifatida uni tushunish boshlang'ich nuqta bo'ldi.

Funksional va jismoniy imkoniyatlarni kompleks nazorat qilish uchun mashqlar va testlar ishlab chiqildi va ularning ishonchlilik xususiyatlari ko'rib chiqildi. Ishonchli va informativ deb tan olingan testlar bo'yicha yosh futbolchilarning jismoniy rivojlanish, jismoniy tayyorgarlik, texnik harakatlar, koordinatsion ko'rsatkichlarining o'sish samaradorligi kompleks nazorat qilib borildi.

Saralash paytida bolalarning qobiliyatlari ham bir xil yorqin ifodalangan bo'lmaydi. Bu, birinchi galda, ularning harakat rejimi, o'sish sur'atlari, ijtimoiy va boshqa omillarning bir-biridan farq qilishi bilan bog'liq.

7-8 yoshli futbolchilarni boshlang'ich tayyorgarlik bosqichiga saralashda jismoniy sifatlarning rivojlanish darajasini aniqlash uchun reaksiya vaqti va vaziyatga muvofiq texnik harakatlarda tanlab reaksiya qilish vaqtini baholash mezonlarining nazariy modeli takomillashtirildi (1-jadvalga qarang).

1-jadval

7-8 yoshli iqtidorli futbolchilarning jismoniy sifatlarini aniqlash uchun reaksiya vaqti va vaziyatga muvofiq oyoqlarda bajariladigan texnik harakatlarda tanlab reaksiya qilish vaqtini baholash mezonlari nazariy modeli

Maxsus sifatlari	Maxsus xususiyatlar, qobiliyatlarning namoyon bo'lishi	Mezonlar, testlar, uslubiyatlar
Tezkorlik, chaqqonlik, chidamlilik	Harakat tezkorligi va reaktivlikni oshirish	Yurib turib 20 m.ga yugurish Yuqori startdan 30 m.ga yugurish
	Harakat chaqqonligi va reaktivlikni oshirish	3x10 m.ga mokisimon yugurish
	Harakat chidamkorligini oshirish	6 daqiqalik yugurish
Tezkor-kuch	Havoda to'p uchun kurashish va zarba berish	Turgan joydan balandlikka sakrash Turgan joydan uzunlikka sakrash
	Harakatda qisqa vaqt ichida to'p uchun kurashish	Chalqancha yotgan holda gavdani ko'tarish
	To'pni o'yinga kiritish va sherigiga uzatish (maydon o'yinchisi, darvozabon)	Bukilgan qo'llarda turnikda osilib turish
		To'ldirma to'pni (1 kg) ikkala qo'lda bosh orqasidan oldinga otish
Oyoqlarning reaksiya vaqti	To'pni qabul qilish	Havoda to'pni nazorat qilish (to'p o'ynatish)
	Qisqa vaqt ichida to'pni darvozga tepish va sherigiga uzatish	To'pni o'ng va chap oyoqda uzoqqa tepish
	To'pni his etish, texnik harakatlarda qisqa vaqt ichida to'pni boshqarish	To'pga uch marta tegish bilan 30 m masofaga olib yurish

7-8 yoshli futbolchilarni boshlang'ich tayyorgarlik bosqichiga saralab olish jarayonida sportchilarning jismoniy rivojlanish va jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari, jismoniy sifatlarini rivojlantirishning sensitiv davrini inobatga olgan holda tananing

harakat tezligi hamda gavda mushaklarining statik muvozanatini yaxshilashning yosh ko'rsatkichlari hamda boshlang'ich tayyorgarlik bosqichiga sportchilarni saralash jarayonida jismoniy sifatlarning jadallik bilan rivojlanish davrlari ishlab chiqildi (2, 3 - jadvallarga qarang).

2-jadval

Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichiga 7-8 yoshdan futbolchilarni saralashda harakat sifatlarini rivojlantirish uchun namunaviy qulay davr


Antropometrik ko'rsatkichlar va jismoniy sifatlar	Yoshi	
	7	8
Gavda uzunligi	+	+
Mushaklar hajmi	+	+
Tezlik	+	+
Tezkor-kuch sifatlari		+
Kuch		+
Chidamlilik	+	+
Anaerob imkoniyatlar	+	+
Egiluvchanlik	+	+
Koordinasion qobiliyatlar	+	+
Muvozanat saqlash		+

3-jadval

Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichiga futbolchilarni saralash jarayonida jismoniy sifatlarning jadallik bilan rivojlanish DAVRLARI


Guruh	Jismoniy sifatlar	Yosh davrlari
Boshlang'ich tayyorgarlik	Oyoqlar va tananing harakat tezligi	7-8
	Gavdaning statik muvozanati	8
	Tezlik-kuch sifatlari	7-8
	Oyoqlarni bukuvchi mushaklarning statik muvozanati	7-8
	Gavdani bukuvchi mushaklarning kuch (dinamik) chidamliligi	8
	Gavdani yozuvchi mushaklar kuchi	8
	Umumiy chidamlilik	8
	Umurtqa pog'onasining egiluvchanligi	7

Boshlang'ich tayyorgarlik guruhidagi 7-8 yoshli futbolchilarning koordinasiya tarkibiga kiruvchi tezlikni almashtirish va dribblingga asoslangan ritmik harakatlarni bajarishga imkon beruvchi texnik harakat qobiliyatlarini o'zlashtirish darajasini oshirish uchun "Oyoq bilan bouling" mashqi ishlab chiqildi (1-rasmga qarang).



1-rasm. Yosh futbolchilarga harakatlarni ritmik bajarish, tezlikni almashtirish va driblingga asoslangan mashg'ulot mexanizmi

7-8 yoshli yosh futbolchilarning koordinatsion harakat qobiliyatlarining rivojlanish darajasidan kelib chiqib, shug'ullanuvchilar tomonidan maxsus jismoniy, texnik, taktik tayyorgarlik elementlarining o'zlashtirilishi, shuningdek, kompleks saralash imkoniyatini takomillashtirish maqsadida koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirish modeli ishlab chiqildi (2-rasmga qarang).



2-rasm. 7-8 yoshli futbolchilarning boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirish modeli

Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida yosh futbolchilarni sportga saralashning tajribaviy texnologiyasi tuzilmasiga ko'ra, iqtidorli va istiqbolli yosh futbolchilarni saralash texnologiyasi to'rtta asosiy komponentlarni (bosqichlarni) o'z ichiga oladi:

1) maqsad; 2) diagnostika; 3) baholash va bashorat qilish; 4) qaror qabul qilish uchun tavsiyalar (3-rasmga qarang).

Ushbu texnologiyaga muvofiq yosh futbolchilarning boshlang'ich tayyorgarlik bosqichidan oldin ko'p yillik saralashning birinchi bosqichi – birlamchi saralash keladi. Dastlabki saralashning asosiy vazifasi shug'ullanuvchilarning yoshi, shug'ullanish istagining borligi, salomatlik holatida jiddiy nuqsonlarning yo'qligi hamda harakat qobiliyatlarining o'yin talablariga mos kelishini inobatga olgan holda futbol bilan shug'ullanishning individual maqsadga muvofiqligini aniqlashdan iborat. O'tkazish uchun mo'ljallangan nazorat testlari mashqlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ular o'z hajmi va ko'rsatkichlari bo'yicha futbol o'yini uchun qo'yiladigan hozirgi zamon talablariga bema'lol javob beradi, chunki ular xarakteristik malakalarini hosil qilish asosida bolaning jismoniy qobiliyatlarini aniqlashga xolisona yordam beradi.

Yosh futbolchilarni saralashga quyidagi komponentlar kiradi:

1) jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlari (tik turganda tana uzunligi, tana og'irligi, ko'krak qafasi aylanasi, Ruffe testi, ortostatik sinov, Shtange sinovi, Genchi sinovi, gavda dinamometriyasi, o'ng va chap qo'l dinamometriyasi, o'pkaning tiriklik sig'imi, o'rindiqda tik turgan holatdan gavnani oldinga egish);

2) jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari (yurib turib 20 m. ga yugurish, yuqori startdan 30 m. ga yugurish, turgan joydan uzunlikka sakrash, turgan joydan balandlikka sakrash, 3×10 m mokisimon yugurish, stadion bo'ylab 6 daqiqalik yugurish, to'ldirma to'pni uloqtirish (1 kg), chalqancha yotgan holda gavnani ko'tarish, bukilgan qo'llarda turnikda osilib turish);


3) texnik harakat qobiliyati ko'rsatkichlar (kichik darvozaga to'p tepish, darvozada belgilangan kvadratlarga to'pni aniq otish (darvozabon), to'pni havoda nazorat qilish (to'p o'ynatish), to'pga uch marta tegish bilan 30 m masofaga olib yurish, o'ng va chap oyoqda to'pni uzoqqa tepish).

Tadqiqot davomida ushbu komponent (bosqich)lar bo'yicha yilning har choragida, ya'ni yilda 4 marta tekshirilayotgan jismoniy rivojlanish, jismoniy tayyorgarlik va texnik harakat qobiliyatlari ko'rsatkichlarining dastlabki holati va o'sish sur'atlari aniqlanib, monitoring qilib borildi.

Shunday qilib, o'tkazilgan pedagogik tajriba jarayonida boshlang'ich tayyorgarlik guruhlariga yosh iqtidorli futbolchilarni saralashda qo'llanilgan texnologiya o'zining samaradorligini ko'rsatdi.

Tadqiqotimiz natijalari futbolga iqtidorli bolalarni saralash tizimi va uni takomillashtirish muammosi bilan bog'liq bir qator muhim masalalarni aniqlashga imkon berdi.

Shunday qilib, iqtidorli yosh sportchilarni 7-8 yoshdan futbol sport turiga saralash uchun to'rt bosqichli saralash texnologiyasi jismoniy rivojlanish, jismoniy tayyorgarlik va texnik harakat qobiliyati ko'rsatkichlarining informativ ko'rsatkichlari integrasiyasiga asoslangan bo'lishi kerak. O'tkazilgan tadqiqotlar futbolchilarning funksional va jismoniy tayyorgarligi ko'rsatkichlarini aniqlab berdi, ushbu ko'rsatkichlar iqtidorli yosh sportchilarni sportga saralash va musobaqa faoliyati samaradorligini oshirish uchun xizmat qilishi mumkin.



3-rasm. Iqtidorli yosh sportchilarni 7-8 yoshdan futbol sport turiga saralash uchun to'rt bosqichli saralash texnologiyasi

Dissertatsiyaning **“Futbol bilan shug‘ullanish uchun ishlab chiqilgan iqtidorli bolalarni saralash metodikasi samaradorligini tajribada asoslash”** deb nomlangan to‘rtinchi bobida pedagogik tajriba natijalari asoslab berilgan.

Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan model, mexanizm va texnologiyalarning samaradorligini aniqlash maqsadida sport maktablari sharoitlarida 7 va 8 yoshli futbolchilar orasida pedagogik tajriba o‘tkazildi. Tajribaning hamma ishtirokchilari (n=96) ikkita tajriba guruhlariga (7 yoshli TG va 8 yoshli TG) va ikkita nazorat guruhlariga ajratildi (7 yoshli NG va 8 yoshli NG). Nazorat guruhida futbol bo‘yicha o‘quv-mashg‘ulotlar sport maktablari uchun an‘anaviy dastur bo‘yicha, tajriba guruhida esa biz tomonimizdan ishlab chiqilgan va taklif qilingan mashqlar majmuasi va metodika asosida o‘tkazildi.

Pedagogik tajriba boshida tekshirilgan 7-8 yoshli futbolchilarning antropometrik ko‘rsatkichlari berilgan, jumladan, tana uzunligi, tana og‘irligi, ko‘krak qafasi aylanasi, Rufye testi, ortostatik sinov, Shtange sinovi, Genchi sinovi ko‘rsatkichlari bo‘yicha tajriba guruhi va nazorat guruhi orasida sezilarli farq kuzatilmadi [$P>0,05$] (4-jadvalga qarang).

7-8 yoshdagi bolalarning 12 ta jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlarini tahlil qilib chiqdik. Yurib turib 20 m. ga yugurish, yuqori startdan 30 m. ga yugurish, turgan joydan uzunlikka sakrash, turgan joydan balandlikka sakrash, 3x10 m. ga mokisimon yugurish, stadion bo‘ylab 6 daqiqalik yugurish, to‘ldirma to‘pni (1 kg) ikkala qo‘lda bosh orqasidan oldinga otish, chalqancha yotgan holda gavdani ko‘tarish, bukilgan qo‘llarda turnikda osilib turish kabi testlar olindi. Bu ikkala ko‘rsatkichlar orasida ham statistik farqlar yo‘qligi aniqlandi [$P>0,05$]. Havoda to‘pni nazorat qilish (to‘p o‘ynatish), to‘pni o‘ng oyoqda uzoqqa tepish mashqi (chap va o‘ng oyoqda), to‘pga uch marta tegish bilan 30 m masofaga olib yurish mashqlari ko‘rsatkichlarida ham statistik farqlar yo‘qligini ko‘rish mumkin [$P>0,05$] (5-jadvalga qarang).

7-8 yoshdagi bolalarning 11 ta test bo‘yicha aniqlangan jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlari tajriba boshida tajriba hamda nazorat guruhlarida orasida statistik farqlarni aniqlab bermagan bo‘lsa, tajriba oxirida ijobiy natijalar qayd etildi (6-jadvalga qarang).

Rufye testi bo‘yicha tajriba oxirida ham ishonchli farqlarni aniqladik, bunda natijalar tajriba guruhida $8,3\pm 1,4$, nazorat guruhida $9,4\pm 1,3$ ga teng bo‘ldi [$t=2,21$; $P<0,05$]. Ortostatik sinov ham statistik farqlarning ishonchliligini ko‘rsatdi, bu yerda tajriba guruhida ko‘rsatkich $12,4\pm 0,7$ va nazorat guruhida $14,7\pm 0,9$ ni tashkil qildi [$t=2,37$; $P<0,05$].

Nafas olish tizimi ko‘rsatkichlari bo‘yicha biz quyidagi natijalarni oldik: Shtange sinovida tajriba oxirida biz statistik farqlar ishonchliligini kuzatdik, bu yerda tajriba guruhida $24,6\pm 2,4$ sek, nazorat guruhida esa $21,6\pm 2,1$ sek natija qayd etildi. Bu yerda ko‘rishimiz mumkinki, tajriba guruhi bolalari nazorat guruhidagi bolalardan ancha sezilarli natija ko‘rsatganlar va bu statistik ishonchli qiymatlar bilan tasdiqlanadi [$t=2,24$; $P<0,05$]. Genchi sinovi ham statistik farqlarni aniqlab berdi: tajriba guruhida ko‘rsatkich $22,5\pm 1,9$ sek, nazorat guruhida esa $20,8\pm 2,0$ sek. ni tashkil etdi [$t=2,19$; $P<0,05$].

7-8 yoshli futbolchilarning pedagogik tajriba boshidagi jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlarining statistik qiyosiy tahlili

T/r	Jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlari	7 yosh				8 yosh			
		TG n=24 ($\bar{X} \pm \sigma$)	NG n=24 ($\bar{X} \pm \sigma$)	t	P	TG n=24 ($\bar{X} \pm \sigma$)	NG n=24 ($\bar{X} \pm \sigma$)	t	P
1	Tik turganda tana uzunligi (sm)	121,4±4,6	122,7±6,4	0,93	>0,05	129,3±4,2	130,7±3,8	1,13	>0,05
2	Tana og'irligi (kg)	23,4±2,7	24,6±3,2	1,22	>0,05	30,2±2,4	31,6±3,7	1,27	>0,05
3	Ko'krak qafasi aylanasi (sm)	58,4±3,8	59,2±3,9	1,13	>0,05	63,7±1,8	64,8±2,3	1,19	>0,05
4	Ruf'e testi	10,8±0,84	11,2±0,91	0,84	>0,05	8,7±0,75	9,9±1,2	0,88	>0,05
5	Ortostatik sinov	19,6±0,72	19,4±0,84	0,96	>0,05	14,4±1,4	15,7±0,96	0,97	>0,05
6	Shtange sinovi (sek)	18,7±1,9	19,6±2,1	1,19	>0,05	21,9±2,3	20,5±2,6	1,12	>0,05
7	Gench sinovi (sek)	16,8±2,2	17,2±1,8	1,83	>0,05	18,7±1,9	19,1±2,4	1,26	>0,05
8	Gavda dinamometriyasi (kg)	32,4±3,4	31,5±2,7	1,49	>0,05	36,7±2,8	37,8±2,6	1,42	>0,05
9	Chap qo'l dinamometriyasi (kg)	12,2±1,7	11,3±2,4	1,32	>0,05	14,6±1,8	13,6±1,4	1,17	>0,05
10	O'ng qo'l dinamometriyasi (kg)	13,8±2,3	12,6±1,8	1,51	>0,05	15,6±2,3	14,3±2,1	1,66	>0,05
11	O'rinda tik turgan holatdan gavdani oldinga egish (sm)	+4,7±0,8	+4,6±0,4	1,23	>0,05	+4,9±0,9	+5,1±1,3	0,96	>0,05


*Izoh: TG – tajriba guruhi, NG – nazorat guruhi

5-jadval
7-8 yoshli futbolchilarning pedagogik tajriba boshidagi jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarining statistik qiyosiy tahlili

T/r	Jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari	7 yosh				8 yosh			
		TG n=24 ($\bar{X} \pm \sigma$)	NG n=24 ($\bar{X} \pm \sigma$)	t	P	TG n=24 ($\bar{X} \pm \sigma$)	NG n=24 ($\bar{X} \pm \sigma$)	t	P
1	Yurib turib 20 m ga yugurish (sek)	3,8±0,7	3,7±0,4	0,64	>0,05	3,6±0,5	3,5±0,7	0,83	>0,05
2	30 m ga yugurish (sek)	6,03±0,2	6,2±0,5	0,81	>0,05	6,1±0,3	6,2±0,5	0,75	>0,05
3	Turgan joydan uzunlikka sakrash (sm)	121,3±13,7	122,5±14,1	1,12	>0,05	129,4±10,7	128,1±10,2	1,12	>0,05
4	Turgan joydan balandlikka sakrash (sm)	18,7±1,6	19,3±1,3	1,07	>0,05	22,5±1,8	21,6±1,7	1,31	>0,05
5	3x10 m ga mokisimon yugurish (sek)	11,4±0,8	11,7±0,9	0,53	>0,05	10,6±0,3	10,3±0,4	0,57	>0,05
6	6-daqiqalik yugurish (m)	634,2±41,9	642,7±38,7	0,98	>0,05	683,1±36,7	692,4±41,6	1,42	>0,05
7	To'ldirma to'pni (1 kg) ikkala qo'lida bosh orqasidan oldinga otish	6,2±0,7	6,03±0,4	1,23	>0,05	7,7±1,3	7,9±1,1	1,24	>0,05
8	Chalqancha yotgan holda gavdani ko'tarish (marta)	21,2±0,5	22,1±0,9	0,79	>0,05	24,6±0,8	23,3±0,9	0,89	>0,05
9	Bukilgan qo'llarda osilib turish (sek)	14,2±2,1	13,7±1,8	1,37	>0,05	16,8±1,5	17,2±1,8	0,74	>0,05
10	To'pni havoda nazorat qilish (janglyor) (marta)	5,4±1,1	5,9±1,3	1,49	>0,05	6,7±1,3	6,9±0,8	1,12	>0,05
11	To'pni uzoqqa tepish a) kuchli oyoqda, o'ng oyoqda b) kuchsiz oyoqda, chap oyoqda	15,3±0,9 12,3±0,4	16,7±0,8 13,6±0,2	1,18 0,88	>0,05 >0,05	18,5±0,6 14,8±0,9	19,3±0,7 15,6±0,8	1,37 1,21	>0,05 >0,05
12	To'pga 3 marta tegish bilan 30 m ga olib yurish (sek)	8,7±0,8	8,8±1,1	0,97	>0,05	8,3±0,8	8,4±1,4	1,17	>0,05

*Izoh: TG – tajriba guruhi, NG – nazorat guruhi

Biz tajriba va nazorat guruhlaridagi yosh futbolchilarning jismoniy holatini ifodalovchi uchta test oldik. Gavda dinamometriyasi tajriba guruhidagi yosh futbolchilarda $37,4 \pm 2,6$ kg, nazorat guruhi vakillarida esa $32,4 \pm 2,8$ kg ni tashkil etdi [$t=2,38$; $P<0,05$], chap qo'l dinamometriyasi tajriba guruhida $15,7 \pm 1,7$ kg, nazorat guruhida $12,6 \pm 1,4$ kg, o'ng qo'l dinamometriyasi tajriba guruhida $16,8 \pm 0,7$ kg, nazorat guruhida $13,9 \pm 0,6$ kg [$t=2,32$; $P<0,05$] ga teng bo'ldi. Bu ko'rsatkichlar shundan dalolat beradiki, tajriba guruhi bolalari nazorat guruhi bolalaridan ancha ustunlikka erishdi. Umurtqa egiluvchanligi uchun testda ham biz guruhlar ko'rsatkichlari orasida statistik ishonchli farqlarni aniqladik. Tajriba guruhida ko'rsatkich $+6,1 \pm 0,2$ sm ni va nazorat guruhida $+5,7 \pm 0,3$ sm ni tashkil etdi [$t=2,23$; $P<0,05$] (3-rasmga qarang).



4-rasm. Pedagogik tajriba oxirida tekshirilayotgan guruhlarda 7 yoshli yosh futbolchilarning jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlari

8 yoshli futbolchilarda o'n bitta ko'rsatkichlardan oltitasida statistik farqlar kuzatildi. Rufe testi bo'yicha tajriba oxirida biz statistik farqlar ishonchligini aniqladik, bu yerda natija tajriba guruhida $7,2 \pm 0,7$, nazorat guruhida esa $8,4 \pm 0,9$ ga teng bo'ldi [$t=2,36$; $P<0,05$].


Nafas olish tizimi ko'rsatkichlari bo'yicha quyidagi natijalarni oldik: Shtange sinovi bo'yicha tajriba oxirida statistik farqlar ishonchligini aniqladik, bu yerda tajriba guruhida $26,8 \pm 2,6$ sek, nazorat guruhida esa $24,7 \pm 2,3$ sek. natija qayd etildi. Ko'rishimiz mumkinki, tajriba guruhi bolalari nazorat guruhi bolalariga qaraganda ancha ustunlikka ega bo'ldi, buni statistik tahlillar tasdiqlaydi [$t=2,23$; $P<0,05$]. Genchi sinovi ham statistik farqlarni aniqlab berdi, tajriba guruhida - $25,3 \pm 1,9$ sek, nazorat guruhida - $23,7 \pm 2,0$ sek [$t=2,32$; $P<0,05$].

6-jadval
7-8 yoshli futbolchilarning pedagogik tajribadan keyin jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlarining statistik qiyosiy tahlili

T/r	Jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlari	7 yosh				8 yosh			
		TG n=24 ($\bar{x} \pm \sigma$)	NG n=24 ($\bar{x} \pm \sigma$)	t	P	TG n=24 ($\bar{x} \pm \sigma$)	NG n=24 ($\bar{x} \pm \sigma$)	t	P
1	Tik turganda tana uzunligi (sm)	128,4±8,4	126,3±7,2	1,98	>0,05	136,4±8,2	135,6±7,3	1,87	>0,05
2	Tana og'irligi (kg)	27,5±2,1	26,2±2,8	1,87	>0,05	34,6±2,8	33,7±3,1	1,92	>0,05
3	Ko'krak qafasi aylanasi (sm)	61,2±1,9	60,5±2,3	1,84	>0,05	66,4±2,3	65,9±2,6	1,84	>0,05
4	Ruf e testi	8,3±1,4	9,4±1,3	2,21	<0,05	7,2±0,7	8,4±0,9	2,36	<0,05
5	Ortostatik sinov	12,4±0,7	14,7±0,9	2,37	<0,05	11,7±1,3	12,8±1,4	1,95	>0,05
6	Shtange sinovi (sek)	24,6±2,4	21,6±2,1	2,24	<0,05	26,8±2,6	24,7±2,3	2,23	<0,05
7	Gench sinovi (sek)	22,5±1,9	20,8±2,0	2,19	<0,05	25,3±1,9	23,7±2,4	2,32	<0,05
8	Gavda dinamometriyasi (kg)	37,4±2,6	32,4±2,8	2,38	<0,05	39,7±2,8	38,4±2,5	1,74	>0,05
9	Chap qo'l dinamometriyasi (kg)	15,7±1,7	12,6±1,4	2,25	<0,05	17,3±1,7	15,4±1,6	2,38	<0,05
10	O'ng qo'l dinamometriyasi (kg)	16,8±0,7	13,9±0,6	2,32	<0,05	18,2±1,3	16,3±1,1	2,21	<0,05
11	O'rindiqa tik turgan holatdan gavdani oldinga egish (sm)	+6,1±0,2	+5,7±0,3	2,23	<0,05	6,2±0,6	5,8±0,8	2,19	<0,05

*Izoh: TG – tajriba guruhi, NG – nazorat guruhi

Ushbu yoshdagi futbolchilarning kuch imkoniyatlarini ifodalovchi testlar qoʻllanildi. Bu yerda biz tajriba va nazorat guruhlaridagi shugʻullanuvchilarning jismoniy holatini ifoda etuvchi uchta testni tanlab oldik. Gavda dinamometriyasi tajriba guruhining yosh futbolchilarida $39,7 \pm 2,8$ kg, nazorat guruhi vakillarida $38,4 \pm 2,5$ kg ni tashkil qildi [$t=1,74$; $P>0,05$], chap qoʻl dinamometriyasi tajriba guruhida, nazorat guruhida esa $15,4 \pm 1,6$ kg ni tashkil etdi [$t=2,38$; $P<0,05$] va oʻng qoʻl dinamometriyasi tajriba guruhida $18,2 \pm 1,3$ kg va nazorat guruhida $16,3 \pm 1,1$ kg ga teng boʻldi. Bu koʻrsatkichlar shundan dalolat beradiki, tajriba guruhi bolalari nazorat guruhi bolalaridan kuch koʻrsatkichlari boʻyicha ustun boʻldi. Umurtqaning egiluvchanligi uchun testda guruhlardagi koʻrsatkichlar orasida statistik farqlar aniqlandi. Tajriba guruhida $+6,2 \pm 0,6$ sm va nazorat guruhida $+5,8 \pm 0,8$ sm ni tashkil qildi [$t=2,19$; $P<0,05$] (5-rasmga qarang).



5-rasm. Pedagogik tajriba oxirida tekshirilayotgan guruhlarda 8 yoshli yosh futbolchilarning jismoniy rivojlanish koʻrsatkichlari

7 yoshdagi futbolchilarning tajribadan keyin olingan 12 ta jismoniy tayyorgarlik testlari koʻrsatkichlarini tahlil qilib chiqdik (7-jadvalga qarang). Yurib turib 20 m ga yugurish tajriba guruhida $3,5 \pm 0,6$ sek, nazorat guruhida $3,6 \pm 0,5$ sek ni tashkil etdi [$t=1,87$; $P>0,05$]. Startdan 30 m ga yugurishda tajriba guruhida koʻrsatkich $6,0 \pm 0,3$ sek, nazorat guruhida $6,1 \pm 0,4$ sek. ni tashkil etdi [$t=1,92$; $P>0,05$]. Bu ikkita koʻrsatkich boʻyicha statistik farqlar yoʻq. Turgan joydan uzunlikka sakrashda ushbu koʻrsatkichlar orasida statistik farqlar kuzatildi: tajriba guruhida $124,4 \pm 16,3$ sm, nazorat guruhida $125,2 \pm 14,2$ sm ni tashkil qildi [$t=2,17$; $P<0,05$]. Turgan joydan balandlikka sakrashda tajriba guruhida bu koʻrsatkich $21,6 \pm 1,8$ sm, nazorat guruhida esa $20,7 \pm 1,9$ sm ni tashkil etdi [$t=1,96$; $P>0,05$], ushbu koʻrsatkichlar orasida statistik farqlar aniqlanmadi. Xususan, 3x10 m ga

mokisimon yugurishda natija tajriba guruhida $10,2 \pm 0,8$ soniya, nazorat guruhida $11,4 \pm 0,7$ soniyani tashkil qildi [$t=1,84$; $P>0,05$], ko'rsatkichlar orasida statistik ishonchli farqlar yo'qligi aniqlandi. 6 daqiqalik yugurish ko'rsatkichi tajriba guruhida $674,2 \pm 38,1$ m, nazorat guruhida $651,4 \pm 36,2$ m ni tashkil etdi, tajriba hamda nazorat guruhlari orasida statistik ishonchli farqlar aniqlandi [$t=2,29$; $P<0,05$]. To'ldirma to'pni (1 kg) ikkala qo'l bilan bosh orqasidan oldinga otish testi bo'yicha natija tajriba guruhida $6,8 \pm 0,7$ m, nazorat guruhida $6,4 \pm 0,6$ m ga teng bo'ldi [$t=2,31$; $P<0,05$], bu nazorat testlari bo'yicha statistik farqlar kuzatildi. Chalqancha yotgan holda gavnani ko'tarish testida tajriba guruhida 24,8 \pm 1,8 marta, nazorat guruhida 23,7 \pm 1,7 marta natija qayd etildi [$t=1,86$; $P>0,05$], olingan natijalarda farqlar aniqlanmadi. Bukilgan qo'llarda turnikda osilib turish mashqida tajriba guruhida ko'rsatkich 16,3 \pm 0,8 soniya, nazorat guruhida 14,9 \pm 0,87 soniyani tashkil etdi [$t=2,29$; $P<0,05$], ko'rsatkichlar orasida ishonchli statistik farqlar borligi ma'lum bo'ldi.

To'pni havoda nazorat qilish (to'p o'ynatish) testini tajriba guruhi bolalari 6,9 \pm 0,4 marta, nazorat guruhi bolalari 6,1 \pm 1,3 marta bajarishdi [$t=2,37$; $P<0,05$]. Ko'rib turganimizdek, ushbu ko'rsatkichlar orasida ishonchli statistik farqlar bor. O'ng oyoqda to'pni uzoqqa tepish mashqida tajriba guruhi bolalarida natija 18,2 \pm 1,3 metr, chap oyoda 15,1 \pm 1,2 metrni tashkil etdi. Nazorat guruhida bu ko'rsatkich o'ng oyoqda – 16,3 \pm 1,5 metr, chap oyoqda – 14,5 \pm 1,3 metrga teng bo'ldi. Statistik farqlar quyidagicha [$t=2,23$; $P<0,05$] o'ng oyoq uchun va [$t=1,95$; $P>0,05$] chap oyoq uchun. To'pga uch marta tegish bilan 30 m ga olib yurish mashqida tajriba guruhida ko'rsatkichlar 8,2 \pm 0,7 soniya, nazorat guruhida 8,7 \pm 1,1 soniyani tashkil etdi, ko'rsatkichlar orasida farqlar aniqlandi [$t=2,26$; $P<0,05$].

8 yoshdagi futbolchilarning 12 ta jismoniy tayyorgarlik bo'yicha ko'rsatkichlarini tahlil qilib chiqdik (7-jadvalga qarang). Yurib turib 20 m yugurishda tajriba guruhida bu ko'rsatkich 3,2 \pm 0,3 sek, nazorat guruhida 3,4 \pm 0,4 sek. ni tashkil etdi [$t=2,2$; $P<0,05$]. Startdan 30 m ga yugurishda tajriba guruhida ko'rsatkich 5,8 \pm 0,1 soniya, nazorat guruhida 6,0 \pm 0,3 soniyani tashkil etdi [$t=2,17$; $P<0,05$]. Bu ikkita ko'rsatkich bo'yicha statistik farqlar bor. Turgan joydan uzunlikka sakrashda tajriba guruhida natija 134,7 \pm 11,7 sm, nazorat guruhida 130,5 \pm 12,4 sm ni tashkil qildi [$t=2,11$; $P<0,05$]. Turgan joydan balandlikka sakrashda tajriba guruhida 24,3 \pm 1,7 sm, nazorat guruhida esa 22,8 \pm 1,4 sm. ni tashkil etdi [$t=2,18$; $P<0,05$] va ushbu ko'rsatkichlar orasida statistik ishonchli farqlar aniqlandi. Xususan, 3x10 m mokisimon yugurish shuni ko'rsatadiki, tajriba guruhida 9,7 \pm 0,7 soniya, nazorat guruhida 10,1 \pm 0,8 soniya natija qayd etildi [$t=2,15$; $P<0,05$], ko'rsatkichlar orasida ham statistik ishonchli farqlar borligi aniqlandi. 6 daqiqalik yugurish natijasi tajriba guruhida 711,6 \pm 37,4 m, nazorat guruhida 698,4 \pm 40,6 m. ni tashkil etdi, bu tajriba hamda nazorat guruhlari orasida statistik ishonchli farqlarni aniqlab berdi [$t=2,34$; $P<0,05$]. To'ldirma to'pni (1kg) ikkala qo'lda bosh orqasidan oldinga otish testida tajriba guruhida 8,4 \pm 1,2 m, nazorat guruhida 8,0 \pm 1,5 m natija qayd qilindi [$t=2,21$; $P<0,05$], ko'rsatkichlar orasida statistik farqlar aniqlandi. Chalqancha yotgan holda gavnani ko'tarish testida tajriba guruhida 26,7 \pm 1,3 marta, nazorat guruhida esa 24,2 \pm 1,4 marta natija qayd etildi [$t=2,17$; $P<0,05$], ko'rsatkichlar orasida statistik ishonchli farqlar kuzatildi.

7-jadval
7-8 yoshli futbolchilarning pedagogik tajribadan keyin jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarining statistik qiyosiy tahlili

T/r	Jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari	7 yosh				8 yosh			
		TG n=24 ($\bar{X} \pm \sigma$)	NG n=24 ($\bar{X} \pm \sigma$)	t	P	TG n=24 ($\bar{X} \pm \sigma$)	NG n=24 ($\bar{X} \pm \sigma$)	t	P
		1	Yurib turib 20 m ga yugurish (sek)	3,5±0,6	3,6±0,5	1,87	>0,05	3,2±0,3	3,4±0,4
2	30 m ga yugurish (sek)	6,0±0,3	6,1±0,4	1,92	>0,05	5,8±0,1	6,0±0,3	2,17	<0,05
3	Turgan joydan uzunlikka sakrash (sm)	128,4±16,3	125,2±14,2	2,17	<0,05	134,7±11,7	130,5±12,4	2,11	<0,05
4	Turgan joydan balandlikka sakrash (sm)	21,6±1,8	20,7±1,9	1,96	>0,05	24,3±1,7	22,8±1,4	2,18	<0,05
5	3x10 m ga mokisimon yugurish (sek)	10,2±0,8	11,4±0,7	1,84	>0,05	9,7±0,7	10,1±0,8	2,15	<0,05
6	6-daqiqalik yugurish (m)	674,2±38,1	651,3±36,2	2,29	<0,05	711,6±37,4	698,4±40,6	2,34	<0,05
7	To'ldirma to'pni (1 kg) ikkala qo'lda bosh orqasidan oldinga otish	6,8±0,7	6,4±0,6	2,31	<0,05	8,4±1,2	8,01±1,5	2,21	<0,05
8	Chalqancha yotgan holda gavidani ko'tarish (marta)	24,8±1,8	23,7±1,7	1,86	>0,05	26,7±1,3	24,2±1,4	2,17	<0,05
9	Bukilgan qo'llarda osilib turish (sek)	16,3±0,8	14,9±0,7	2,28	<0,05	19,5±1,7	17,6±1,6	2,12	<0,05
10	To'pni havoda nazorat qilish (janglyor) (marta)	6,9±0,4	6,1±0,5	2,37	<0,05	7,4±1,7	7,0±1,5	2,23	<0,05
11	To'pni uzoqqa tepish a) chap oyoqda b) o'ng oyoqda	15,1±1,2 18,2±1,3	14,5±1,3 16,3±1,5	1,95 2,23	<0,05	18,8±0,9 22,3±1,2	16,2±0,8 19,7±1,3	2,19 2,25	<0,05
12	To'pga 3 marta tegish bilan 30 m ga olib yurish (sek)	8,2±0,7	8,7±0,9	2,26	<0,05	7,9±0,6	8,2±0,8	2,31	<0,05

*Izoh: TG – tajriba guruhi, NG – nazorat guruhi

Bukilgan qoʻllarda turnikda osilib turish mashqida natija tajriba guruhida $19,5 \pm 1,7$ soniya, nazorat guruhida $17,6 \pm 1,6$ soniyani tashkil qildi [$t=2,12$; $P<0,05$], koʻrsatkichlar orasida ishonchli statistik farqlar aniqlandi. Toʻpni havoda nazorat qilish (toʻp oʻynatish) tajriba guruhida $7,4 \pm 1,7$ marta, nazorat guruhida $7,0 \pm 1,5$ marta bajarildi [$t=2,23$; $P<0,05$] koʻrsatkichlar orasida ishonchli statistik farqlar kuzatildi. Oʻng oyoqda toʻpni uzoqqa tepish mashqida tajriba guruhi bolalarida natija $22,3 \pm 1,2$ metr, chap oyoqda $18,8 \pm 0,9$ metrni tashkil etdi. Nazorat guruhida oʻng oyoda – $19,7 \pm 1,3$ metr, chap oyoqda – $16,2 \pm 0,8$ metr. Statistik farqlar quyidagicha [$t=2,19$; $P<0,05$] va [$t=2,25$; $P<0,05$], bu ushbu koʻrsatkichlar orasida statistik ishonchli farqlar aniqlanganligidan dalolat beradi. Toʻpga uch marta tegish bilan 30 m ga olib yurish mashqi quyidagi koʻrsatkichlarni aniqlab berdi: tajriba guruhida $7,9 \pm 0,65$ sek, nazorat guruhida $8,2 \pm 0,8$ sek. ni tashkil etdi, ushbu koʻrsatkichlar orasida ishonchli statistik farqlar aniqlandi [$t=2,31$; $P<0,05$] (7-jadvalga qarang).

7 va 8 yoshdagi yosh futbolchilarning tajriba boshidagi jismoniy rivojlanish va jismoniy tayyorgarlik koʻrsatkichlarining statistik tahlili TG hamda NGLariga taxminan bir xil tayyorgarlikka ega bolalar tanlab olinganligini koʻrsatdi, bu bizga maqsadli pedagogik tajriba oʻtkazish imkoniyatini berdi ($P>0,05$). 7 yoshli bolalar guruhida pedagogik tajriba oxirida jismoniy rivojlanish boʻyicha 8 ta koʻrsatkichda ($P<0,05$) va jismoniy tayyorgarlik boʻyicha 7 ta koʻrsatkichda ($P<0,05$) statistik ishonchli farqlar kuzatildi. 8 yoshli bolalar orasida jismoniy rivojlanish boʻyicha 6 ta koʻrsatkichda ($P<0,05$) va jismoniy tayyorgarlik boʻyicha 12 ta koʻrsatkichda ($P<0,05$) ishonchli statistik farqlar qayd etildi.

XULOSALAR

Nazariy va amaliy tadqiqotlarni tahlil qilish asosida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

1. Ilmiy-metodik adabiyotlar va yetakchi murabbiylarning amaliy tajribasini tahlil qilish shuni koʻrsatdiki, ushbu sport turi uchun xos boʻlgan maxsus yuklamalarga yaxshiroq moslashishga va oʻyin vaqtida oʻz imkoniyatlarini samarali amalga oshirishga qodir boʻlgan iqtidorli yosh futbolchilarni sport mashgʻulotlariga saralashda jismoniy rivojlanish, jismoniy tayyorgarlik va harakat qobiliyatlari darjasini baholash tadqiqot predmeti sifatida sportga saralashning ilmiy asoslangan metodikasini ishlab chiqish zarurati oydinlashdi.

2. Yosh futbolchilarni saralash samaradorligini oshirish uchun pedagogik kuzatuv davomida toʻp bilan bajariladigan elementlarni oʻrgatishda texnik harakatlarga vaziyatga muvofiq tanlab reaksiya qilish vaqtini qisqartirishga qaratilgan mashqlardan foydalanib, maxsus jismoniy sifatlarni rivojlantirish modeli asosida futbolchilarning tezlik-kuch imkoniyatlarini oshirib borish lozim, bu nafaqat maydonda texnik harakatlarni bajarish tezligini oshirishga, balki aerob imkoniyatlarning oʻsishi uchun morfologik bazani yaxshilashga yordam berishi aniqlandi.

3. Boshlangʻich tayyorgarlik guruhidagi 7-8 yoshli futbolchilarning tezlikni almashtirish va dribblingga asoslangan ritmik harakatlarni bajarishga imkon beruvchi texnik harakat qobiliyatlarini oʻzlashtirish darajasini “Oyoq bilan bouling” mashqini kiritish, shuningdek, darvozaga aniq zarba berish, turli tartibda joylashtirilgan doira va kvadratlarga toʻpni tepib tushirish, toʻpni havoda nazorat qilish (toʻp oʻynatish), toʻpga

uch marta tegish bilan 30 m masofaga olib yurish va o'ng va chap oyoqda to'pni uzoqqa tepish mashqlari yordamida aniqlandi.

4. Yosh futbolchilarni sportga saralashda uning tartibi va ketma-ketligi haqida yetarlicha ma'lumotlarga ega bo'lish lozim. Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida yosh futbolchilarni sportga saralash texnologiyasi tuzilmasiga ko'ra, iqtidorli va istiqbolli yosh futbolchilarni saralash texnologiyasi to'rtta asosiy komponentlar, ya'ni: 1) maqsad, 2) diagnostika, 3) baholash va bashorat qilish, 4) qaror qabul qilish uchun tavsiyalar asosida tashkil qilish tavsiya etiladi.

5. Yosh futbolchilarni saralab olish jarayonida sportchilarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligini, jismoniy sifatlarni rivojlantirishning sensitiv davrlarini inobatga olib, tananing harakat tezligi hamda gavdaning statik va dinamik muvozanatini yaxshilashga qaratilgan (vestibulyar muvozzant, osilgan to'pga bosh bilan zarba berish kabi) mashqlar sportchilarning individual ko'rsatkichlari darjasini baholashga imkon beradi.

6. Yosh futbolchilar istiqbolini kompleks baholash obyektivligi va ularni tanlangan sport turi bilan kelgusida shug'ullanish uchun saralab olishning maqsadga muvofiqlik darajasini aniqlash informativ mezonlar tizimi orqali ta'minlanadi, ularning tarkibi barcha yosh guruhlar uchun ahamiyatli bo'lgan tinch holatda YuQS, chidamlilik koeffitsiyenti, O'TS, Ruffy test, Shtange sinovi, Genchi sinovi, turgan joydan balandikka va uzunlikka sakrash, to'pni uzoqqa tepish, to'ldirma to'pni ikki qo'lda bosh orqasidan otishga tabaqalashtirildi.

7. Iqtidorli yosh futbolchilarning jismoniy va funksional tayyorgarligi bo'yicha tashxislashga qaratilgan to'rt bosqichli saralash texnologiyasida qo'llanilgan ishonchli va informativ test mashqlari natijasida 7 va 8 yoshli jamoalar o'yinchilari o'yinda ko'proq quyidagi harakatlarni qo'llashadi: to'pni olib yurish – 21%, oldinga qisqa va o'rta masofalarga to'p uzatishlar – 20%, to'pni olib qo'yish – 17%, aldab o'tish - 16%, to'pni egallab olish – 19%. 7 va 8 yoshdagi yosh futbolchilarning tajriba boshidagi jismoniy rivojlanish va jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarining statistik tahlili TG hamda NGLariga taxminan bir xil tayyorgarlikka ega bolalar tanlab olinganligini ko'rsatdi, bu bizga maqsadli pedagogik tajriba o'tkazish imkoniyatini berdi ($P>0,05$). 7 yoshli bolalar guruhida pedagogik tajriba oxirida jismoniy rivojlanish bo'yicha 8 ta ko'rsatkichda ($P<0,05$) va jismoniy tayyorgarlik bo'yicha 7 ta ko'rsatkichda ($P<0,05$) statistik ishonchli farqlar kuzatildi. 8 yoshli bolalar orasida jismoniy rivojlanish bo'yicha 6 ta ko'rsatkichda ($P<0,05$) va jismoniy tayyorgarlik bo'yicha 12 ta ko'rsatkichda ($P<0,05$) ishonchli statistik farqlar qayd etildi.

AMALIY TAVSIYALAR

O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida yosh futbolchilarni saralash bo'yicha ishlarni tashkil qilishda jismoniy rivojlanish, jismoniy tayyorgarlik va maxsus harakat sifatlarini tavsiflovchi testlar to'plamidan foydalanish orqali saralashda jismoniy va harakat tayyorgarligi bo'yicha yuqori boshlang'ich darajaga ega, shuningdek, ushbu ko'rsatkichlarning o'sish darajasi ham yuqori bo'lgan yosh futbolchilarga ustunlik berish lozim.

2. Dissertatsiya ishida test o'tkazish uchun taklif etilgan ko'rsatkichlar yosh futbolchilarning jismoniy rivojlanish darajasi hamda jismoniy tayyorgarligi bilan birgalikda, harakat ko'nikmalarini ham miqdoriy jihatdan aniqlashga imkon beradi. Tayyorgarlikka oid turli jihatlarining miqdoriy qiymatlarini tizimli aniqlash o'rganilayotgan ko'rsatkichlarning dinamikasi va o'sish sur'atlarini aniqlashga imkon beradi.

3. Bolalarning futbol bilan shug'ullanishga tayyorgarligining yetakchi omili sifatida ularning maxsus testlarda muayyan harakat vazifalarini hal qilishga bo'lgan qobiliyatlarini hisobga olish kerak (to'p o'ynatish, to'pni to'xtatish, ustunchalar orasidan to'pni olib o'tish vaqti, to'pni 30 m masofaga olib yurish vaqti, uzoq masofaga zarba berish).

4. Yosh sportchilarning jismoniy tayyorgarligi darajasini baholash uchun ma'lum yosh guruhiga nisbatan ishonchliligi va informativligi bo'yicha tekshiruvdan o'tgan test topshiriqlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. O'rganilayotgan yosh kontingenti uchun eng informativ test vazifalarga quyidagilar kiradi:

1) jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlari (tik turganda tana uzunligi, tana og'irligi, ko'krak qafasi aylanasi, Rufe testi, ortostatik sinov, Shtange sinovi, Genchi sinovi, gavda dinmometriyasi, o'ng va chap qo'l dinamometriyasi, o'pkaning tiriklik sig'imi, o'rindiqda tik turgan holatdan gavdani oldinga egish);

2) jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari (yurib turib 20 m yugurish, yuqori startdan 30 m yugurish, turgan joydan uzunlikka sakrash, turgan joydan balandlikka sakrash, 3×10 m mokisimon yugurish, stadion bo'ylab 6 daqiqalik yugurish, to'ldirma to'pni uloqtirish (1 kg), chalqancha yotgan holda gavdani ko'tarish, bukilgan qo'llarda turnikda osilib turish);

3) texnik harakat qobiliyati ko'rsatkichlari (kichik darvozaga to'p tepish, darvozada belgilangan kvadratlarga to'pni aniq otish (darvozabon), to'pni havoda nazorat qilish (to'p o'ynatish), to'pga uch marta tegish bilan 30 m masofaga olib yurish, o'ng va chap oyoqda to'pni uzoqqa tepish).

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ № DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 ПО ПРИСВОЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ УЗБЕКСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И СПОРТА**

САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

ЭРМАТОВ ШЕРЗОД САИДОВИЧ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ ОТБОРА ОДАРЕННЫХ ДЕТЕЙ
В ФУТБОЛЕ НА ОСНОВЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ НАДЕЖНЫХ И
ИНФОРМАТИВНЫХ ТЕСТОВ**

13.00.04 - Теория и методика физического воспитания и спортивной тренировки

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО
ПЕДАГОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Чирчик-2023

Тема диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инновации Республики Узбекистан за № В2021.3.PhD/Ped2780

Диссертация выполнена в Самаркандском государственном университете.

Автореферат диссертации на трёх (узбекском, русском, английский (резюме)) языках, размещен на web-сайте Научного совета по адресу (www.jtsu.uz) и информационно-образовательном портале «ZiyoNet» по адресу (www.ziyo.net.uz).

Научный руководитель: Кипчаков Баходир Бахриддинович
кандидат педагогических наук, профессор

Официальные оппоненты: Кошбахтиев Ильдар Ахмедович
доктор педагогических наук, профессор

Талипджанов Асқар Имамджанович
кандидат педагогических наук, профессор

Ведущая организация: Наманганский государственный университет

Защита диссертации состоится «29» «мар» 2023 г. в 14⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01. при Узбекском государственном университете физической культуры и спорта по адресу: 111709, Ташкентская область, г.Чирчик, ул. Спортчилар, дом 19. Тел: (0-370) -717-17 79,717-27-27, факс: (0-370) 717-17-76, Веб-сайт: www.jtsu.uz, e-mail: info@jtsu.uz Административное здание Узбекского государственного университета физической культуры и спорта, корпус «Б» 2-ой этаж, малый зал.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Узбекского государственного университета физической культуры и спорта (зарегистрирован под номером 0004) по адресу: 111709, Ташкентская область, г.Чирчик, ул. Спортчилар, дом 19. Тел: (0-370) -717-17 79,717-27-27, факс: (0-370) 717-17-76, Веб-сайт: www.jtsu.uz, e-mail: info@jtsu.uz

Автореферат диссертации разослан «18» мар 2023 года
(реестр протокола рассылки № 19 от «18» мар 2023 года)



М.Р.Болтабаев
Председатель научного совета по присуждению
ученых степеней, д.э.н., профессор


М.Х.Миржамолов
Ученый секретарь научного совета по присуждению
ученых степеней, д.п.н.(DSc), доцент


Ф.А.Керимов
Председатель научного семинара при научном
совете по присуждению ученых степеней, д.п.н., профессор

Введение (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире в настоящее время процесс отбора и спортивной ориентации талантливой молодежи становится одним из приоритетных направлений. Ведущие ученые и специалисты в области спорта подчёркивают необходимость организации тренировочных занятий с учетом особенностей физического развития, физической подготовленности и двигательных способностей талантливых юных футболистов. Обоснованные методы отбора спортивно одаренных детей в спортивные школы, прогнозирование их будущих достижений и перспектив в спорте становятся неотъемлемой частью системы многолетней подготовки. Рациональная система отбора и спортивной ориентации, поиск детей с природными способностями и талантом становится одним из главных показателей развития футбола в развитых странах.

В мире ведущими специалистами проводятся научные исследования, посвященные отбору и спортивной ориентации с учетом игрового амплуа спортсменов, которые направлены на разработку квалификационных критериев отбора в футболе. В футболе большинство исследователей проводят исследования по определению взаимосвязи между текущим состоянием игрока и генетическими предпосылками и физической работоспособностью, а также игрового амплуа футболиста. Несмотря на достаточную разработанность содержания отбора занимающихся для занятий спортом, остаётся ещё много нерешенных проблем, касающихся отбора и спортивной ориентации детей при приёме их на этап начальной подготовки в футболе. Необходимо разработать новые тестовые нормативы, направленные на объективную оценку физического развития, физической подготовленности и двигательных способностей юных спортсменов, совершенствовать методику отбора талантливых юных футболистов на основе комплексных исследований с использованием педагогических, медико-биологических и социологических методов.

В последние годы в нашей республике реализовываются ряд мероприятий, направленных на привлечение к спорту подрастающего молодого поколения и отбор среди молодежи спортивно одаренных спортсменов. Особое внимание уделяется вопросам «разработки и внедрения на местах эффективной и прозрачной четырехэтапной системы отбора (селекции) талантливых спортсменов из числа молодежи: организация – район (город) - регион – республика» и «выявления талантливых спортсменов и создание резерва для молодежных сборных команд»¹. Отсутствие комплексной и широкомасштабной научно-методической работы по отбору одаренных детей для занятий футболом, кроме того, недостаточная оценка показателей физического развития

¹ Указ Президента Республики Узбекистан от 24 января 2020 года «О мерах по дальнейшему совершенствованию и популяризации физической культуры и спорта в Республике Узбекистан». Утверждено Приложением 1 к Постановлению № ПФ-5924 «Концепция развития физической культуры и спорта в Республике Узбекистан до 2025 года». С. 9-10.

и физической подготовленности в процессе отбора детей для занятий футболом, отсутствие анализа показателей постоянного мониторинга данных требует определения и внедрения в практику надежных и информативных тестов, определяющих специальные способности для занятий футболом. Также поэтапное выявление показателей уровня физического развития и физической подготовленности на этапе отбора с учетом индивидуальных возможностей молодых одаренных футболистов, проведение исследовательских работ, основанных на практических исследованиях на основных этапах подготовки, организация системы эффективного отбора талантливой молодежи для занятий футболом остается требованием времени.

